


MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL

IYUL/7-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
MOSCOW • RUSSIA



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyul.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

MILLIY GVARDIYA TIZIMIDA HARBIY XIZMATCHILARNI KIYIM-KECHAK BILAN TA'MINLASH TIZIMINING NAZARIY ASOSLARI	10
Omonov Usmonqul Raxmonqul o'g'li FOND BOZORLARIGA XORIJIY KAPITALNI JALB QILISH: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA RIVOJLANISH IMKONIYATLARI	17
Yusupova Jamila Karamatdinovna AXBOROT KOMMUNIKATSIYA XIZMATLARINING TASHKLIY-HUQUQIY VA ILMIY NAZARIY MASALALARI	21
Rajaboyev Shahboz Shodi o'g'li PUL MABLAG'LARI HISOBINI MOLIVAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA O'TKAZISHNING DOLZARB MASALALARI	26
Eshonqulov Akmal Qudratovich XORAZM VILOYATINING IJOBIY IMIJINI OSHIRISHDA HUDUDIIY MARKETING STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQISH	34
Ibadullayev Dilshad Ibragimovich OROL BO'YI MINTAQASIDA QISHLOQ XO'JALIGI VA TURIZMNI YASHIL MOLIVALASHTIRISH VA INVESTITSIIYA MEXANIZMLARI: BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	40
Akramova Feruza ATMOSFERA HAVOSI MONITORINGIDA IOT SENSORLARI O'LCHASH NATIJALARINING METROLOGIK ISHONCHLILIGINI BAHOLASH VA OSHIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	52
Sobirov Anvarjon, Melibayev Maxmudjan BANK VA KREDIT MUASSASALARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI TREND MODELLARI YORDAMIDA TAHLIL QILISH VA PROGNOZLASH USULLARI	59
Nazarov Elbek PHYSALIS ALKEKENGII O'SIMLIGIDAN FLAVONOIDLARNI AJRATIB OLISHNING BIOTEXNOLOGIK USULLARI VA JARAYON PARAMETRLARINI OPTIMALLASHTIRISH	66
Xidirova Saboxat Baxrillayevna ЧИСЛЕННАЯ ОЦЕНКА РАЗВИТИЯ ЗОН КОНЦЕНТРАЦИИ НАПРЯЖЕНИЙ В МАССИВЕ ГОРНЫХ ПОРОД ПРИ ВЛИЯНИИ ПРОЦЕССОВ ДОБЫЧИ В УСЛОВИЯХ РУДНИКА «КЫЗЫЛ-АЛМА»	70
Салямова Клара, Меликулов Абдусаттар, Уралбаев Абдукахар, Бакиров Гайрат, Зухритдинов Давронбек XUSUSIIY TA'LIM SOHASIDA MALAKALI KADRLAR NOMUTANOSIBLIGI, IT MUTAXASSISLARINING YETISHMASLIGI VA ISHSIZLIKNING TA'LIM SIFATI HAMDA BARQARORLIGIGA TA'SIRI: ILG'OR XORIJ TAJIRIBASI VA UNING O'ZBEKISTON AMALIYOTIGA TATBIQ ETILISHI	77
Raxmatxo'jayev Axrolxo'ja Akmal o'g'li SAND-PARTICLE-INDUCED LEADING-EDGE EROSION AND ITS IMPACT ON WIND TURBINE BLADES: A REVIEW	82
Normamatov A. A. IPAKCHILIK KLASSTERLARI UCHUN INVESTITSION BOSHQARUV MODELINI ASOSLASH	87
Elboyeva Shaxzoda Olimovna KICHIK VA O'RTA BIZNES SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK USULLARDA TAHLIL QILISH METODOLOGIYASI	94
Nazarov Nazar G'ulom o'g'li OLIIY TA'LIM MUASSASALARI BOSHQARUV FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISHNING AHAMIYATI	101
Usmanov Sarvar Nigmatovich	



РАЗРАБОТКА АДАПТИВНОГО МНОГОЗОНАЛЬНОГО АЛГОРИТМА УПРАВЛЕНИЯ FUZZY-PID ДЛЯ ОБЕСПЕЧЕНИЯ РАВНОМЕРНОГО РАСПРЕДЕЛЕНИЯ ВЛАЖНОСТИ В ПРОЦЕССЕ УВЛАЖНЕНИЯ ЗЕРНА.....	107
Камариддинов Шохрух Акмал угли	
SANOAT KLASSTERLARIDA "SANOAT 4.0" TECHNOLOGIYALARINI JORIY ETISH VA HAMKORLIK MODELLARI	113
Mamadaliyev Anazxon Ziyodillayevich	
SAND-PARTICLE-INDUCED LEADING-EDGE EROSION AND ITS IMPACT ON WIND TURBINE BLADES: A REVIEW	119
Normamatov A. A.	
YOSHLARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI.....	124
Xudoyberdiyev Norbek Komiljon o'g'li	
HUDUDIIY TURIZMDA XALQARO ESG MEZONLARINI MILLIY SHAROITGA MOSLASHTIRISH YO'NALISHLARI	128
Maxmudova Nodira Uktamovna	
EVALUATION OF TECHNOLOGICAL LOSSES OF HYDROCARBONS OF LIGHT FRACTIONS IN THE PROCESSES OF COLLECTION AND PRIMARY TREATMENT AT THE MUBARAK FIELDS OF OGPD.....	134
Norqulov Shohbozbek Samandar ugli	
АНАЛИЗ СИСТЕМЫ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В БАНКОВСКОМ СЕКТОРЕ УЗБЕКИСТАНА.....	140
Жумадуллаева Дурдона Шухрат кизи	
XUSUSIY TA'LIM SOHASIDA MALAKALI KADRLAR NOMUTANOSIBLIGI TA'LIMNING SIFAT VA USTUVORLIGIGA TA'SIRI VA UNI TA'MINLASH YO'LLARI	145
Raxmatxo'jayev Axrolxo'ja Akmal o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TOVAR YETKAZIB BERISH ZANJIRI ISHTIROKCHILARI FAOLIYATI VA BOJXONA NAZORATI TIZIMINING ZAMONAVIY HOLATI TAHLILI.....	150
Kilichov Nazar Bafoyevich	
HUDUDLARDA TURIZM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING AHOLI DAROMADLARI VA BANDLIGIGA TA'SIRINING TAHLILI	157
Abdurayimov O'ktam Abdug'ani o'g'li	
GAZNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA BARQAROR RIVOJLANISH HOLATINING IQTISODIY TAHLILI VA BAHOLASH	164
Kudratkhodjaeva Ziyoda Kamol qizi	
COMPETITION IN THE INFORMATION MARKET: MONOPOLY TRENDS AND THE DIGITAL PLATFORM ECONOMY.....	169
Mo'ydinjonova Durdonaxon, Ismanov Ibrohim	
BOZOR INFRATUZILMASINING IQTISODIY MAZMUNI VA KICHIK BIZNES RIVOJIDAGI AHAMIYATI	174
Ganiyev Botir Baxtiyorovich	
MAGNIY VA KALSIY ELEMENTLARINI O'RGATISHDA O'QUVCHILARDA 4K KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	178
Esnazarov Abdiganij Jamalatdinovich	
DATA-DRIVEN STRATEGIK MENEJMENT: MA'LUMOTLARGA ASOSLANGAN BOSHQARUVNING ZAMONAVIY KORXONALAR RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI	184
Baymuradov Shoxrux, Dilmurodov Komiljon	
YASHIL BUXGALTERIYA (GREEN ACCOUNTING) VA ESG HISOBOTLARI: RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BARQAROR RIVOJLANISHNING STRATEGIK VOSITALARI	190
Nematullayev Hamidullo, Bo'stonova Nilufar	
АНАЛИЗ ФАКТОРОВ РАЗВИТИЯ ФИНАНСОВЫХ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ	196
Нуралиева Мукаддас Мамуровна	



AGROSANOAT MAJMUASIDA INVESTISIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH, OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH VA MUSTAHKAMLASH MASALALARI	201
Xakimov Rashid	
TADBIRKORLIKDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING IQTISODIY SAMARALARI	206
Salohiddinov Zuhridin Nuriddinjon o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH HOLATINI TAHLIL QILISH	212
Achilova Firuza, Zohidov Jamshid	
NAMANGAN VILOYATINING BOSHQA HUDUDLAR BILAN TOVAR VA XIZMATLAR AYLANMASI HAMDA IQTISODIY ALOQALARINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	217
Sattarov R.A.	
ОПТИМАЛЬНАЯ МОДЕЛЬ ФОРМИРОВАНИЯ ФИНАНСОВЫХ РЕСУРСОВ ТЕКСТИЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ	222
Нурмуродов Камолиддин Пирмаматович	
OPTIK ABONENT KIRISH TARMOG'INING XIZMATLARI SAMARADORLIGI	230
Uskenbayeva Dilfuza Shuxrat qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLI DEMOGRAFIK JARAYONLARINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLARNI EKONOMETRIK MODELLARINI TUZISH VA PROGNOZLASH	235
Siroj Zarina Rustambekovna	
QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHDA AGROKLASTERLARNING O'RNI VA AHAMIYATI	242
Berdiyev Abdumalik Hakimovich	
HUNARMANDCHILIK KLASSTERLARI BO'YICHA XORIJIY TAJRIBA: TURKIYA, MAROKASH VA FRANSIYA MODELLARINING QIYOSIY TAHLILI	249
Yaxshiliqov Sardor Rustam o'g'li	
BANK TIZIMIDA LIKVIDLILIK VA KAPITAL YETARLILIGI RISKLARINI BOSHQARISH MASALALARI ...	255
Qurbonov Ilhom Jumaqulovich	
O'ZBEKISTON QISHLOQ HUDUDLARIDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL OMILLARI	258
Saidakbarova Ziyoda Doniyor qizi	
BIOLOGIK AKTIVLARNI HAQQONIQIY QIYMATDA BAHOLASHNING KO'P OMILLI MODEL	266
Akhmetova Salima Seytovna	
OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH SALOHİYATINI BOSHQARISHNING NAZARIY - USLUBIY JIHATLARI	272
Gulmatov Sunnatillo Nurillayevich	
YASHIL INVESTITSİYALAR MINTAQQA IQTISODIYOTINI BARQAROR DIVERSIFIKATSİYALASH VOSITASI SIFATIDA	281
To'xtayev Maqsud Mansurovich	
DAVLAT MUASSASALARIDA INSON RESURLARIDAN FOYDALANISHNI IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI	287
Xusanova Muxsina Kasimovna	
O'ZBEKISTONDA QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I MA'MURIYATCHILIGINI RIVOJLANISH QONUNIYATLARI VA UNDAGI TIZIMLI MUAMMOLAR TAHLILI	294
Turdaliyev Eldor Sho'xratjon o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA DAROMAD MANBALARI INDEKSI VA UNING RENTABELLIGIGA TA'SIRI	300
Ahmedov Komron Muhammad-Alievich	
KORPORATIV BOSHQARUV MEXANIZMLARINING ISHLASH TAMOIYILLARI VA ULARNI QURILISH KORXONALARI AMALIYOTIGA JORIY ETISH MASALALARI	308
G'iyosov Ilxom Karimovich	
ECONOMIC STRUCTURE AND DEVELOPMENT PRIORITIES FOR STRENGTHENING INTERREGIONAL ECONOMIC COOPERATION: EVIDENCE FROM NAMANGAN REGION	316
Sattarov R.A.	



UY-JOY BOZORIDA BIRLAMCHI VA IKKILAMCHI SEGMENTLAR O'RTASIDAGI NARX TAFOVUTLARI VA ULARNI SHAKLLANTIRUVCHI OMILLARNING IQTISODIY TAHLILI	322
Sadikova Dildora Abdulla qizi	
TABIY RESURLAR SAMARADORLIGI VA INSON KAPITALI INTEGRATSIYASINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: O'ZBEKISTON HUDUDLARI MISOLIDA	329
Yusubboyeva Dinora Quadrat qizi	
CHAKANA SAVDODA MAHSULOT TALABINI BASHORATLASH USULLARI	336
Mamatov Narzullo, Baxtiyorova Mohiruy	
SOLIQ AUDITIDAGI XAVF-XATARLARNI TAHLIL QILISH (RISK-ANALIZ) TIZIMI VA BUXGALTERNING HIMOYA TAKTIKASI	343
Nematullayev Hamidullo, Bo'stonova Nilufar	
YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIM XIZMATLARI SIFATINING NAZARIY ASOSLARI	347
Raxmanov Raxmanbergan Abdullaevich	
MA'LUMOTLARNI MOLIYAVIY HISOBOTDA TAQDIM ETISHNING XORIJ TAJRIBASI.....	351
Kozimjonov Abrorbek	
TADBIRKORLIK INFRATUZILMASINI DIVERSIFIKATSIYA QILISH ORQALI SANOAT ZONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH	357
Arifbayev Bobir Dilshodovich	
TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISHDA TRANSCHEGARAVIY SUG'URTA VA DAVLAT KAFOLATLARI MEKANIZMLARINING QIYOSIY TAHLILI.....	364
Kengesbaeva Suliuxan Maxsetbay qizi	
20GL MARKALI PO'LATDAN TAYYORLANADIGAN YUK VAGONI YON RAMASI QUYMASIDA KIRISHUV G'OVAKLAR HOSIL BO'LISH QONUNIYATLARINI TADQIQ QILISH	368
Chorshanbiyeva Lobar, Turaxodjayev Nodir, Nuriddinov Otabek, Kenjayev Elshod	
O'ZGARUVCHAN TEZLIKLI, OG'MA QATOR QOZIQLI, SINUSOIDAL PLANKALI BARABANLARDA PAXTA BO'LAGINING ZARBALI TA'SIRI MODELI.....	374
Djurayev Anvar, Qorachayeva Oltinoy	
SANOAT KORXONALARINI ESG ASOSIDA JARAYONLI BOSHQARISHNING XORIJIY TAJRIBASI VA BAHOLASH METODOLOGIYASI.....	379
Azimova Maxfuza Rashidovna	
TURIZM SOHASIDA AHOLINI ISH BILAN TA'MINLASH VA YANGI ISH O'RINLARINI YARATISHGA QARATILGAN TADBIRKORLIK FAOLIYATINI QO'LLAB-QUVVATLASH	386
Muxtarov Botir Abdusattarovich	
RAQAMLI TO'LOV TIZIMLARINI SOLIQQA TORTISHNING HUQUQIY ASOSLARI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	391
Sarsengalieva Albina, Sarsenbaev Bakhitjan	



RAQAMLI TO'LOV TIZIMLARINI SOLIQQA TORTISHNING HUQUQIY ASOSLARI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI

Sarsengalieva Albina Askar qizi

Qoraqalpoq davlat universiteti Iqtisodiyot fakulteti

“Soliqlar va soliqqa tortish” yo'nalishi 3-kurs talabasi

E-mail: albinasarsengalieva31@gmail.com

Ilmiy rahbar: Sarsenbaev Bakhitjan Abdulg'azievich

i.f.f.d. (PhD)

Qoraqalpoq davlat universiteti Iqtisodiyot fakulteti

“Moliya va moliyaviy texnologiyalar” kafedrası dotsenti

Annotatsiya. Raqamli to'lov tizimlarini soliqqa tortishning huquqiy va nazariy asoslari, mazkur yo'nalishdagi ilmiy yondashuvlar hamda O'zbekiston Respublikasida shakllangan huquqiy tartibga solish amaliyoti tahlil qilingan. Raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq rezidentligi, daromad manbai va doimiy muassasa kabi an'anaviy soliq-huquqiy institutlarni amaliy qo'llashda yuzaga kelayotgan muammolar yoritilgan. To'lov tizimi operatorlari, elektron savdo platformalari hamda norezident sotuvchilarning qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha majburiyatlarini tartibga solishga oid **2020–2026-yillarda** qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilinib, amaldagi tizimni takomillashtirish yuzasidan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: raqamli to'lov tizimlari, elektron tijorat, qo'shilgan qiymat solig'i, doimiy muassasa, soliq rezidentligi, transchegaraviy operatsiyalar, soliq ma'murchiligi, marketplace, raqamli iqtisodiyot.

Аннотация. Исследованы правовые и теоретические основы налогообложения цифровых платёжных систем, современные научные подходы, а также практика правового регулирования в Республике Узбекистан. Раскрыты проблемы применения традиционных налогово-правовых институтов, включая налоговое резидентство, источник дохода и постоянное представительство, в условиях цифровой экономики. Проведён анализ нормативно-правовых актов, принятых в **2020–2026 годах**, регулирующих налоговые обязательства операторов платёжных систем, электронных торговых платформ и иностранных поставщиков по налогу на добавленную стоимость, а также разработаны научно обоснованные предложения по совершенствованию действующего механизма правового регулирования.

Ключевые слова: цифровые платёжные системы, электронная коммерция, налог на добавленную стоимость, постоянное представительство, налоговое резидентство, трансграничные операции, налоговое администрирование, marketplace, цифровая экономика.

Abstract. The legal and theoretical foundations of taxation of digital payment systems, contemporary scholarly approaches, and the current regulatory framework of the Republic of Uzbekistan are examined. Particular attention is given to the challenges of applying traditional tax law concepts, including tax residency, source of income, and permanent establishment, within the digital economy. Regulatory legal acts adopted during **2020–2026** concerning value-added tax obligations of payment system operators, electronic commerce platforms, and non-resident suppliers are analyzed, and practical recommendations for improving the existing legal and tax regulation framework are proposed.

Keywords: digital payment systems, electronic commerce, value-added tax, permanent establishment, tax residency, cross-border transactions, tax administration, marketplace, digital economy.

KIRISH

Raqamli to'lov tizimlarining jadal rivojlanishi – elektron pul, mobil to'lov ilovalari, to'lov agregatorlari va transchegaraviy onlayn hisob-kitob platformalarining ommalashuvi – milliy soliq tizimi oldiga mutlaqo yangi vazifalarni qo'ymoqda. An'anaviy soliq huquqi jismoniy mavjudlik, rezidentlik va daromad manbai mamlakati tushunchalariga tayangan bo'lsa, raqamli iqtisodiyot sharoitida ushbu tayanch mezonlarning amaliy qo'llanilishi yangi yondashuvlarni talab etmoqda. Xususan, to'lov xizmatini ko'rsatuvchi tashkilot mijoz joylashgan mamlakatda jismoniy filialga ega bo'lmasdan turib, millionlab operatsiyalarni amalga oshirishi mumkin. Bu esa

Soliq kodeksida nazarda tutilgan doimiy muassasa institutining klassik ta'rifini zamonaviy iqtisodiy munosabatlar sharoitida takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, O'zbekiston Respublikasida xorijiy to'lov tizimlari va elektron savdo platformalari orqali amalga oshiriladigan operatsiyalar hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Shu bilan birga, milliy soliq qonunchiligini mazkur jarayonlarga yanada moslashtirish hamda huquqiy tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Tadqiqotning maqsadi raqamli to'lov tizimlarini soliqqa tortishning huquqiy asoslarini tahlil qilish hamda shu asosda O'zbekiston amaliyotini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflarni ishlab chiqishdan iborat. Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: raqamli to'lov tizimlarining soliq-huquqiy tabiatini ochib berish; mavzuga oid ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish; milliy qonunchilik amaliyotini baholash hamda tegishli takliflarni shakllantirish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli to'lovlar va elektron tijoratni soliqqa tortish masalasi so'nggi yillarda xorijiy tadqiqotchilar e'tiborini tobora ko'proq jalb etmoqda. D. Alzaabi 2013-yilda olib borgan tadqiqotida elektron tijorat operatsiyalarini soliqqa tortish zarurati masalasini ko'rib chiqqan hamda bunday operatsiyalarni an'anaviy soliq nazorati vositalari orqali kuzatish murakkabligini asoslab bergan [1]. I. Teixeira va I. Paiva 2021-yilda olib borgan tadqiqotda elektron tijoratni soliqqa tortish bilan bog'liq dolzarb muammolar tizimli ravishda tahlil qilingan. Xususan, transchegaraviy operatsiyalarda daromad manbaini aniqlash bilan bog'liq huquqiy va amaliy masalalar yoritilgan [2].

C. Omodero va G. Ekundayo 2025-yilda Nigeriya misolida o'tkazgan ekonometrik tadqiqotda raqamli to'lov vositalari (elektron cheklar, POS-terminallar, mobil va veb-to'lovlar)ning soliq yig'ish samaradorligiga ta'siri o'rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, raqamli to'lov infratuzilmasining rivojlanishi soliq tushumlarining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi statistik jihatdan asoslab berilgan [3]. Muallifning fikricha, mazkur xulosalar O'zbekiston sharoitida ham amaliy ahamiyatga ega bo'lishi mumkin, chunki mamlakatimizda naqd pulsiz hisob-kitoblar ulushining ortishi soliq bazasini kengaytirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratmoqda.

Mahalliy ilmiy adabiyotlarda ham ushbu yo'nalish izchil rivojlanib bormoqda. R. Umirzaqova 2026-yilda amalga oshirgan tadqiqotida O'zbekistonda elektron tijoratni soliqqa tortishning amaldagi holati va rivojlanish istiqbollari tahlil qilingan. Jumladan, marketpleyslarni soliq agenti sifatida jalb etish hamda soliq nazoratini avtomatlashtirish zarurati asoslab berilgan [4]. F. Isayev va S. Kamilova 2024-yilda chop etgan maqolada elektron tijoratni soliqqa tortishning nazariy asoslari yoritilib, elektron tijorat subyektlarini aniqlash va ularni soliq nazorati tizimiga integratsiya qilish mezonlarini ishlab chiqish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan [5].

Shu bilan birga, ko'rib chiqilgan tadqiqotlarning aksariyatida asosiy e'tibor elektron savdo platformalari (marketpleyslar) va ularda faoliyat yurituvchi sotuvchilarni soliqqa tortish masalalariga qaratilgan. To'lov tizimi operatorlarining, ya'ni tovar sotuvchisi emas, balki pul o'tkazmalarini texnik jihatdan amalga oshiruvchi vositachi tashkilotlarning soliq-huquqiy maqomi esa ilmiy adabiyotlarda nisbatan kam o'rganilgan. Muallifning fikricha, aynan ushbu yo'nalishni tadqiq etish mazkur maqolaning ilmiy yangiligini belgilaydi. Chunki elektron savdo va to'lov vositachiligi funksional jihatdan farqlanadi hamda ularga nisbatan soliq-huquqiy yondashuvlarni yanada aniqlashtirish amaliyot samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Raqamli to'lov tizimlarini soliqqa tortishning huquqiy asoslarini tahlil qilishda dialektik, tarixiy-huquqiy, qiyosiy-huquqiy hamda tizimli tahlil usullaridan foydalanildi. Mavzuga oid milliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar qiyosiy tahlil qilindi. O'zbekiston amaliyotini baholashda esa Soliq kodeksi, O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 1-noyabrda qabul qilingan "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi O'RQ-578-son¹ Qonun, Prezident farmonlari va qarorlari, Markaziy bankning normativ-huquqiy hujjatlari hamda rasmiy statistik ma'lumotlar tahlil obyekti sifatida olindi. Normativ-huquqiy tahlil bilan bir qatorda amaliy misollar, jumladan marketpleyslarning soliq to'lovlari bo'yicha statistik ma'lumotlar asosida induktiv xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda to'lov tizimlari faoliyati asosan O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 1-noyabrda qabul qilingan "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi O'RQ-578-son² Qonun hamda Markaziy bank tomonidan qabul qilingan nizomlar

1 O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 1-noyabrda qabul qilingan "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi O'RQ-578-son Qonun: <https://lex.uz/docs/-4575786>

2 O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 1-noyabrda qabul qilingan "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi O'RQ-578-son Qonun: <https://lex.uz/docs/-4575786>



bilan tartibga solinadi. Qonunga ko'ra, to'lov tizimi operatorlari va to'lov tashkilotlari Markaziy bank tomonidan litsenziyalanadi va nazorat qilinadi. Ular axborot xavfsizligi, kiberxavfsizlik hamda tavakkalchiliklarni boshqarish tizimini joriy etishlari shart [6]. 2025-yilda ko'rib chiqilgan qonun loyihasida to'lov tashkilotlarini ahamiyatiga ko'ra ikki toifaga ajratish hamda "muhim to'lov tashkiloti" tushunchasini joriy etish nazarda tutilgan (batafsil: *spot.uz*). Shu bilan birga, amaldagi qonunchilik, asosan, moliyaviy barqarorlik va kiberxavfsizlik masalalariga yo'naltirilgan bo'lib, to'lov operatorlarining soliq-huquqiy maqomini yanada takomillashtirish imkoniyatlari mavjud.

Raqamli iqtisodiyot va elektron tijoratni rivojlantirish borasida bir qator farmon va qarorlar qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son³ Farmon bilan raqamli infratuzilmani rivojlantirish hamda elektron xizmatlar ko'lamini kengaytirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan [7]. Ushbu islohotlarning mantiqiy davomi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 13-apreldagi "O'zbekiston Respublikasida elektron tijorat sohasini yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-136-son⁴ qarori bilan elektron tijorat sohasini yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar joriy etildi. Jumladan, transchegaraviy elektron tijoratni raqamlashtirish hamda onlayn savdo tizimini takomillashtirish nazarda tutilgan [8].

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 49- va 50-boblarida norezidentlarning doimiy muassasa orqali hamda doimiy muassasasiz olgan daromadlariga soliq solish tartibi belgilangan [9]. Biroq raqamli to'lovlar orqali amalga oshiriladigan operatsiyalarda daromad manbaini aniqlash o'ziga xos yondashuvni talab etadi, chunki pul mablag'lari bir nechta mamlakat orqali, ko'pincha uchinchi mamlakatda joylashgan to'lov operatori vositasida o'tkaziladi. Mazkur yo'nalishni yanada takomillashtirish maqsadida qonunchilikka muhim yangilik kiritildi. Unga ko'ra, elektron savdo platformalari orqali O'zbekistonda tovar sotuvchi xorijiy yuridik shaxslar qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari sifatida e'tirof etiladi. Agar xorijiy kompaniya O'zbekiston hududidan tashqarida joylashgan bo'lsa va xaridorlar bilan bevosita elektron platforma orqali savdo qilsa, qo'shilgan qiymat solig'i sotilgan tovar yoki xizmatning haqiqiy qiymatidan kelib chiqib hisoblanadi hamda undiriladi.

Amaldagi amaliyot ko'lamini ifodalovchi misol sifatida Wildberries marketpleysining O'zbekistondagi "WB INT EXPORT" korxonasi faoliyatini keltirish mumkin. 2022–2024-yillar davomida mazkur korxona jami 51,2 milliard so'm soliq to'lagan bo'lib, shundan 42,8 milliard so'mi qo'shilgan qiymat solig'i hissasiga to'g'ri kelgan (batafsil: *gazeta.uz*, 2026-yil 18-may). Quyidagi 1-jadvalda ushbu operatsiyalar bo'yicha yillar kesimidagi taxminiy dinamika keltirilgan.

1-jadval

Transchegaraviy elektron tijorat orqali to'langan QQS dinamikasi⁵

Yil	Transchegaraviy elektron tijorat orqali to'langan QQS (mlrd so'm)	Izoh
2022	~10,1	Islohotlarning boshlang'ich bosqichi
2023	~15,4	Marketpleyslar ulushining oshishi
2024	~17,3	Nazorat mexanizmlarining takomillashtirilgan davri
Jami (2022–2024)	42,8	WB INT EXPORT (Wildberries) misolida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 26-maydagi "Kichik biznes subyektlarining o'sishi uchun yanada qulay iqtisodiy va ma'muriy shart-sharoitlar yaratish to'g'risida"gi PF-100-son⁶ Farmonga ko'ra, kichik biznes subyektlari uchun qo'shilgan qiymat solig'i ma'murchiligini soddalashtirish, elektron hisobvara-fakturalar hamda soliq hisobotlarining xavf darajasini real vaqt rejimida baholash orqali soliq farqini avtomatik qaytarish amaliyoti joriy etilmoqda [10]. Muallifning fikricha, mazkur yo'nalish, ya'ni soliq ma'murchiligini raqamlashtirish jarayoni, kelgusida to'lov operatorlarining ma'lumotlar bazalarini soliq organlari axborot tizimlari bilan avtomatik integratsiya qilish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Ayni paytda ushbu masalani tartibga soluvchi maxsus huquqiy mexanizmlarni yanada rivojlantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Tadqiqot natijasida quyidagi asosiy holatlar aniqlandi: birinchidan, to'lov operatorlarining soliq-huquqiy

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son Farmon: <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>

4 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 13-apreldagi "O'zbekiston Respublikasida elektron tijorat sohasini yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-136-son qarori: <https://lex.uz/docs/-8131421>

5 Manba: *gazeta.uz* ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

6 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 26-maydagi "Kichik biznes subyektlarining o'sishi uchun yanada qulay iqtisodiy va ma'muriy shart-sharoitlar yaratish to'g'risida"gi PF-100-son Farmon: <https://lex.uz/docs/-8236831>

maqomi hamda ularning qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha majburiyatlarini alohida tartibga solish imkoniyatlari mavjud; ikkinchidan, "doimiy muassasa" tushunchasining klassik ta'rifi bilan jismoniy mavjudliksiz faoliyat yurituvchi raqamli to'lov operatorlari faoliyati o'rtasidagi tafovutlarni huquqiy jihatdan yanada aniqlashtirish zarur; uchinchidan, transchegaraviy shaxsdan-shaxsga pul o'tkazmalariga oid ma'lumotlar moliyaviy monitoring tizimida shakllantirilayotgan bo'lsa-da, ularni soliq organlari axborot tizimlari bilan avtomatik va tizimli integratsiya qilish yo'nalishida qo'shimcha imkoniyatlar mavjud.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ilmiy izlanish natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli to'lov tizimlarining rivojlanishi an'anaviy soliq-huquqiy tushunchalar – rezidentlik, daromad manbai va doimiy muassasa –ning amaliy qo'llanilishida yangi yondashuvlarni talab etmoqda. Shu bois milliy qonunchilikni zamonaviy raqamli iqtisodiyot sharoitlariga mos ravishda takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasida **2020–2026-yillar** davomida qabul qilingan qator farmon va qarorlar elektron tijorat hamda raqamli iqtisodiyotni huquqiy jihatdan tartibga solish yo'nalishida muhim natijalarni ta'minlagan bo'lsa-da, to'lov tizimi operatorlarining soliq-huquqiy maqomini yanada aniqlashtirish va tizimli tartibga solish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

- Soliq kodeksiga to'lov tizimi operatorlari va to'lov tashkilotlarining soliq-huquqiy maqomini alohida belgilovchi modda kiritish;
- to'lov operatorlari va elektron savdo agregatorlari uchun soliq organlariga davriy hisobot taqdim etish tizimini ishlab chiqish;
- to'lov operatorlarining axborot tizimlarini Soliq qo'mitasining elektron nazorat platformalari bilan integratsiya qilish imkoniyatlarini o'rganish;
- marketpleyslar bo'yicha **2026-yildagi** qo'shilgan qiymat solig'i islohotining ijobiy tajribasini to'lov operatorlari faoliyatiga tatbiq etish imkoniyatlarini ko'rib chiqish;
- **"doimiy muassasa"** tushunchasining Soliq kodeksidagi ta'rifini raqamli muhitda, jismoniy mavjudliksiz faoliyat yurituvchi tashkilotlar faoliyati xususiyatlarini hisobga olgan holda aniqlashtirish.

Xulosa qilib aytganda, raqamli to'lov tizimlarini soliqqa tortishning huquqiy asoslarini takomillashtirish nafaqat soliq ma'murchiligi samaradorligini va soliq bazasini kengaytirishga xizmat qiladi, balki mahalliy hamda xorijiy operatorlar uchun teng raqobat muhitini shakllantirishga ham ko'maklashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Alzaabi, D. (2013). *Electronic Commerce Taxation: Should Electronic Commerce Be Taxed?* // IRPN: Innovation & Cyberlaw & Policy (Topic). <https://doi.org/10.2139/SSRN.2278582>
2. Teixeira, I., & Paiva, I. (2021). *Electronic Commerce and Actual Problems of Taxation // Research Anthology on E-Commerce Adoption, Models, and Applications for Modern Business*. <https://doi.org/10.4018/978-1-7998-8957-1.ch087>
3. Omodero, C. O., & Ekundayo, G. (2025). *The Road to Tax Collection Digitalization: An Assessment of the Effectiveness of Digital Payment Systems in Nigeria and the Role of Macroeconomic Factors // International Journal of Financial Studies*, 13(3), 178. <https://doi.org/10.3390/ijfs13030178>
4. Umirzaqova, R. (2026). *Mamlakatimizda elektron tijoratni soliqqa tortish uslublarini takomillashtirish yo'llari // Центральноазиатский журнал образования и инноваций*, 5(6), 4–11. <https://www.in-academy.uz/index.php/CAJEL/article/view/51572>
5. Исаев, Ф., & Камилова, С. (2024). *Электрон тижоратни солиққа тортишнинг назарий асослари // Iqtisodiy Taraqqiyot va Tahlil*, 2(3), 296–304. <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss3-pp296-304>
6. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 49-, 50-boblar. <https://lex.uz/docs/-4674902>
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF–6079-son "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 13-apreldagi PQ–136-son "Elektron tijorat sohasini yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori. <https://lex.uz/uz/docs/8131421>
9. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 1-noyabrdagi O'RB–578-son "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi Qonuni: <https://lex.uz/docs/-4575786>
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 26-maydagi "Kichik biznes subyektlarining o'sishi uchun yanada qulay iqtisodiy va ma'muriy shart-sharoitlar yaratish to'g'risida"gi PF-100-son Farmoni: <https://president.uz/oz/lists/view/9260>



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100